

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.20/30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

NEGMATOVA DILOVAR ISOQJONOVNA

**YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLABAY ISHLASH TIZIMINING
SOTSIOLOGIK TAHLILI**

22.00.02–Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

SOTSIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK:

**Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii
doktora filosofii (PhD) po sotsiologicheskim naukam**

**Sontents of Dissertation Abstrast of the
Dostor of Philosophy (PhD) on Sosiological Ssienses**

**Negmatova Dilovar Isoqjonovna
Yangi O'zbekistonda mahallabay ishlash tizimining sotsiologik
tahlili.....4**

**Негматова Диловар Исокжоновна
Социологический анализ системы работы махаллабай в Новом
Узбекистане24**

**Negmatova Dilovar Isokzhonovna
Sociological analysis of the work system of mahallabay in the New
Uzbekistan6**

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....51**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.20/30.12.2019.S.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

NEGMATOVA DILOVAR ISOQJONOVNA

**YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLABAY ISHLASH TIZIMINING
SOTSIOLOGIK TAHLILI**

22.00.02–Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

SOTSIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Sots39 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.dba.uz/uz/tadqiqotchilarga/ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bekmurodov Mansur Bobomurodovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

sotsiologiya fanlari doktori, professor

Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSs.20/30.12.2019.S.23.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «___» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45. Tel.: (99871) 232-60-80; faks: (99871) 232-60-66; e-mail: info@dba.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45. Tel.: (99871) 232-61-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi (2024 yil «___» _____dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

T.B. Matibaev
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi o‘ribosari, sots.f.d., professor

Sh.M. Sodiqova
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, sots.f.d., professor

A. Muxtorov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi
o‘ribosari, fal.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan globallashtirish jarayonida ijtimoiy hayot muammolari boshqaruvning turlicha ko'rinishlarida turlicha hal qilinib kelinmoqda. Shu o'rinda fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, o'zini-o'zi boshqarish tizimining mamlakatimizga xos bo'lgan noyob shakli mahalla instituti faoliyati ham insonni ijtimoiylashtirishning tarixan isbotlangan namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Dunyo ijtimoiy siyosiy hayotida mahalla asosida boshqaruvning tashkil qilinishi kamyob hodisa ekanligini ilmiy o'rganish zaruriyatini ilgari suradi.

Jahon ilm fani va amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tahlil etish, ularni tashkiliy jihatlari, turli nodavlat uyushmalar, o'z o'zini boshqarish organlari ijtimoiy maslalani hal qilishning turlicha usul va vositalari ishlab chiqilgan. Ayniqsa, ijtimoiy muammolarning tizimli hal qilinishiga yo'naltirilgan regional yondashuv maqsadli va aniq manzilli siyosat Yangi O'zbekistonning ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ta'kidlash joizki, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar doirasida fuqarolik jamiyatining muhim bug'ini bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekiston ijtimoiy hayotiga tegishli mahalla institutarining faoliyatini ilmiy jihatdan yanada teranroq va ko'lamliroq tadqiq qilishning maqsadga muvofiqligi oydinlashmoqda.

Yangi O'zbekistonda mahalla tizimiga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi. Zero, o'z mohiyatiga ko'ra ham mumtoz ham innovatsion tizim aholi bilan bevosita ishlashning eng samarali va an'anaviy mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalq bilan muloqotning bunday yangicha usulini boshqacha qilib mahallabay ishlash tizimi deb atayapmiz¹. Shu boisdan, mahallabay ishlash tizimini yanada takomillashtirishda mavjud tartibni tanqidiy-tahliliy hamda sotsiologik o'rganish aholidagi real ehtiyojlar, imkoniyatlar hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga oid qiziqish va intilishlari balansini va ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun zarur bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv kurslarini tashkil etish, ijtimoiy maqbul diskursiv kontsepsiyasini ishlab chiqish, har bir ijtimoiy tabaqa, xususan yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarini ularning motivatsiyasiga aylantirish, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va moliyaviy ko'mak berish tizimi negizida kambag'ahlikni qisqartirish, "o'sish nuqta"larini aniqlash, aholining mazkur o'sish nuqtalari asosida yangi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etish, doirasida kompleks sotsiologik tadqiqotlar o'tkazib borishni yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 3-dekabrda PF-29-son "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida", 2023-yil 21-dekabrda PF-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi 2020-yil 25-yanvar №19 (7521) soni.

209-son “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan shora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 13-iyundagi PF-334-son “Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 22 fevraldagi PF-5667-son “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonlari, PQ-31-son 03.12.2021 yil Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida, 82-son. 21.02.2022 yil, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining Davlat g‘aznachilik majburiyatlari va obligatsiyani tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori, 2022-yil 26-dekabrda PQ-458-son “Mahalla budjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha shora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 15-martdagi 137-son “Mahallabay ishlashga mas‘ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta‘minlash hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini tashkil etish shora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyundagi 334-son “Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” qarori, 2024-yil 18 iyuldagi 267-son- PQ “Hududlarni jadal rivojlantirish bo‘yicha aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida qarorlari hamda “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dasturining II. “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mahallabay ishlash mexanizmining ilmiy nazariy asoslarini yaratilishi esa aynan O‘zbekiston tajribasi hisoblanib, endilikda sotsiologik tadqiqotlar uchun bu mutlaqo yangi masala bo‘lib turibdi. Mazkur mavzuning ilmiy nazariy hamda metodologik asosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” nomli kitobi hamda chiqargan farmon va qonunlarida belgilab berilgan vazifalarni bajarish yuzasidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar va ustuvor yo‘nalishlariga mos keladi.

Davlat va jamiyat boshqaruvining turli bo‘g‘inlari turli, xususan, hududiy boshqarishni takomillashtirishga ijtimoiy-madaniy iqtisodiy axloqiy-falsafiy qarashlar mujassamdir. Bu, eng avvalo, Aflotun, Arastu, Sitseron va boshqa mutafakkirlar g‘oyalari bilan bog‘liq. Ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivojiga

ensiklopedik olimlar Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Nizom ul Mulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqalar ulkan hissa qo‘shganlar. Shu bilan bir qatorda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish institutlari faoliyatini tadqiq qilishda buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», kabi asarlari tarixiy va sosiologik manbalar asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘rta asrlar Yevrorada davlat va jamiyat boshqaruvining turli bo‘g‘inlari, xususan, hududiy va o‘zini o‘zi boshqarishga takomillashtirishiga oid g‘oyalar qadimgi dunyo mutafakkirlarining asarlarida ham uchraydi, ularda ko‘hna mifologik talqinlar prizmasi orqali jamiyat boshqaruvi qaror topishi jarayonini teologik paradigmalar nuqtai nazaridan o‘rganila boshladilar. Bunday yondashuv Avreliy Avgustin², Foma Akvinskiy³, Velgelm Shekspir⁴ va boshqalarning ishlarida ko‘zga tashlanadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyodagi mutafakkirlarning ishlarida birinchi va ikkinchi Uyg‘onish davrida faqat antik davr mutafakkirlarining meroslari chuqur o‘rganilibgina qolmay, balki davlat boshqaruvi jarayonini tushunishga mutlaqo yangicha konseptual amaliy yondashuv ishlab chiqildi.

XVII-XIX asr Yevropa mutafakkirlari N.Makiavelli⁵, J.Lokk⁶, T.Gobbs⁷, T.Reyn, J.Russo, I.Kant, G.Gegel⁸, A.Tokvil kabi faylasuflar va davlat arboblari katta hissa qo‘shganlar. XX asrning birinchi yarmida M.Veber⁹, F.Gudnou singari olimlar asarlarida mahalliy va o‘zini o‘zi boshqaruvi nazariyasi o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘la boshlagan. Xususan boshqaruv jarayonlarida obyektiv omil, ya’ni insonning shaxs sifatida roli, insonning bunyodkorlik missiyasini anglashdan iborat sosiologik tafakkur shakllana boshladi. U G‘arbiy Yevropa va AQShda XX asr ikkinchi yarmigacha boshqaruv sosiologiyasida uzluksiz tadqiq etib kelindi. Jamiyat va davlat boshqaruvi tizimi muhim bo‘g‘in bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqarishning konseptual asoslari ishlab chiqilishiga O.Kont¹⁰, E.Dyurkgeym¹¹, K.Marks¹²,

² Блаженный Августин. Об истинной религии. Теологический трактат. - Мн.: Харвест, 1999. - 1600 с.

³ Фома Аквинский / Апполонов А. В. // Уланд — Хватцев [Электронный ресурс]. — 2017. — С. 458—460

⁴ William Shakespeare. A Textual Companion (англ.). — Oxford: Oxford University Press, 1987. — ISBN 0-19-812914-9.

⁵ Макиавелли Никколо. Сочинения исторические и политические; Сочинения художественные; Письма. — М.: «АСТ», «Пушкинский дом», 2004. — ISBN 5-17-021264-X.

⁶ Локк Дж. Два трактата о правления. – Москва: Юрист, 2012. –128 С.

⁷ Гоббс Т. Философские основания учения о гражданине. — М.-Минск: АСТ, Харвест, 2001. —158 С.

⁸ Гегель Г.В. Философия права. – М.: Мир книги, 2009. — С. 464.

⁹ Вебер М. Избранное. Протестантская этика и дух капитализма. – 4-е изд. / Сост. Ю.Н. Давыдов. – М.; СПб.: Центр гуманитарных инициатив, 2017. – С. 656.

¹⁰ Конт О. Общий обзор позитивизма / Перевод с французского И. А. Шапиро. Под ред. Э. Л. Радлова. — Изд. 2-е. — М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2011. — 296 с. — (Из наследия мировой философской мысли: история философии). — ISBN 978-5-397-01521-9.

¹¹ Durkheim, Émile. The Rules of Sociological Method, Preface to the Second Edition, trans. W.D.Halls, The Free Press, 1982, ISBN 978-0-02-907940-9, p.45.

¹² Karl Marx, Das Kapital, Erster Band, in: Marx-Engels-Werke, Band 23, Berlin 1972, S. 647.

A.Fayol¹³, A.Maslou¹⁴ va boshqa taniqli sosiologlar katta hissa qo‘shganlar. Mazkur tadqiqotda MDH mamlakatlari jamiyatshunos olimlaridan A.Ageyev, M.Antonova, G.Atamanchuk¹⁵, Ye.Belyakov, A.Vasilenko, A.Vasilik¹⁶, L.Vecher¹⁷, T.Gaydenko, Yu.Davidov¹⁸, Yu.Zamoshkin¹⁹, L.Zaxarova, A.Kurochkin, I.Lavrenteva, V.Makarenko²⁰, V.Maslovskiy, A.Mironov, V.Nagimova, A.Obolonskiy²¹, Rochersov, S.Ryabuxin, S.Sabantayev, A.Semenov, K.Simonov, L.Smorgunov²² va boshqalarni tadqiqot ishlarida qisman ko‘rishimiz mumkin. Shuni aytib o‘tish joizki, yaqin xorijiy mamlakatlardagi olimlarning ko‘pgina asarlarida, asosan, G‘arbiy Yevropa va AQSh olimlari tadqiqotlarining natijalari tahlil etilgan.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda jamiyatni modernizatsiyalash jarayoni, demokratik institutlar va mahalla boshqaruvi ahamiyati jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan bo‘lgan Abdurauf Fitrat²³, Mahmudxo‘ja Behbudiy²⁴, Abdulla Avloniy²⁵, Abdulla Qodiriy²⁶ va boshqalarning asarlarida etnomadaniy idrok etish negizida tadqiq etilgan.

Yangi O‘zbekistonda mahallabay ishlash tizimi respublikamizda alohida mustaqil mavzu sifatida endigina kirib kelmoqda. Yurtimiz olimlardan A.Saidov²⁷, Sh.Ochilov, Ya.Ollamov²⁸, M.G‘ulomov, A.To‘laganov, O.Qurbonov, M.Qirg‘izboyeva, R.Rahmonov va boshqalar mahalla yoki o‘zini o‘zi boshqarish institutlarining faoliyati bo‘yicha tadqiqot ishlarida e‘tibor berib o‘tganlar. Jamiyat va davlat boshqaruvida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish institutlari masalasi mamlakatimiz jamiyatshunos olimlarining ham e‘tiborini o‘ziga jalb etdi. Bu borada N.Aliqoriyev²⁹, O.Ota-Mirzayev³⁰, O.Abdurahmonov, E.Azizov, A.Azizxonov,

¹³ Fayol, Henri Administration industrielle et générale. — Paris. — Dunod et Pinat. — 1916. — 174 p.

¹⁴ Маслоу А. Мотивация и личность. — СПб.: Питер, 2008.

¹⁵ Атаманчук Г. В. Теория государственного управления. -М.: Юрид.лит. – 2010. -399 с.

¹⁶ Основы теории коммуникации. — М.: Гардарики, 2003. — 615 с.

¹⁷ Вечер Л. С. Теория и методология государственного управления. - Мн.: Акад. упр. при Президенте Респ. Беларусь. – 2005. – Т. 231.

¹⁸ Давыдов Ю. Н. Макс Вебер и современная теоретическая социология: Актуальные проблемы веберовского социологического учения. — М.: Мартис, 1998. — 510 с. — ISBN 5-7248-0056-X.

¹⁹ Замошкин Ю. Вызовы цивилизации и опыт США. История, психология, политика. М.: Наука, 1991.

²⁰ Макаренко В. П. Политическая концептология: обзор повестки дня. — М.: Праксис, 2005. — 368 с.

²¹ Оболонский А. В. Этика публичной сферы и реалии политической жизни. 2016. 448 с. ISBN 978-5-244-01186-9 ...

²² Сморгунов В. Политические сети. Теория и методы анализа. — М.: Издательство «Аспект. Пресс», 2014. — 320 с.

²³ Fitrat. Tanlangan asarlar, Ikki jildlik. T.: „Ma’naviyat“, 2001.

²⁴ Махмудхўжа Бехбудий. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Akademnashr, 2021. —512 с.

²⁵ Avloniy, Tanlangan asarlar, Ikki tomlik, „Ma’naviyat“, T., 1998-yil

²⁶ Abdulla Qodiriy. To‘la asarlar to‘plami, 1-jild. She’rlar. Hikoya va ocherklar. Hajviyalar. T.: Fan, 1995.

²⁷ Саидов А. Сравнительное правоведение. Ин-т гос. и права РАН, Акад. правовой ун-т. — М.: НОРМА, 2006.

²⁸ Олламов Я. Давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари: ўзаро муносабатларда муружаатларнинг ўрни, жамоатчилик назоратининг роли ва муружаатлар билан ишлашни такомиллаштириш муаммолари. –Т.: IJOD-PRESS, 2021. –672 б.

²⁹ Алиқориев Н.С. Олий таълим тизимини ижтимоий ривожлантириш омиллари. – Тошкент, 2019, - 152 б.

³⁰ Ата-Мирзаев О. Узбекистан в зеркале общественного мнения. Монография. – Ташкент: IQTISOD-MOLIYA, 2016. – 351 с.

O.Abduazimov³¹, M.Bekmurodov³², Sh.Sodiqova, M.G‘aniyeva³³, R.Jumayev, N.Jo‘rayev³⁴, Sh.Qudratxo‘jayev, Q.Quranboyev³⁵, N.Latipova³⁶, A.Muminov³⁷, F.Musayev³⁸, A.Raxmonov, R.Ubaydullayeva³⁹, A.Umarov, E.Xalilov, A.Xolbekov, T.Matiboyev⁴⁰, X.Husanova kabi olimlarning tadqiqot ishlari alohida e‘tiborga molik.

Mazkur tadqiqotda MDH mamlakatlari jamiyatshunos olimlaridan A.Ageyev, M.Antonova, G.Atamanchuk⁴¹, Ye.Belyakov, A.Vasilenko, A.Vasilik⁴², L.Vecher⁴³, T.Gaydenko, Yu.Davidov⁴⁴, Yu.Zamoshkin⁴⁵, L.Zaxarova, A.Kurochkin, I.Lavrenteva, V.Makarenko⁴⁶, V.Maslovskiy, A.Mironov, V.Nagimova, A.Obolonskiy⁴⁷, Rochersov, S.Ryabuxin, S.Sabantayev, A.Semenov, K.Simonov, L.Smorgunov⁴⁸ va boshqalarni tadqiqot ishlarida qisman ko‘rishimiz mumkin. Shuni aytib o‘tish joizki, yaqin xorijiy mamlakatlardagi olimlarning ko‘pgina asarlarida, asosan, G‘arbiy Yevropa va AQSh olimlari tadqiqotlarining natijalari tahlil etilgan.

³¹ Абдуазимов О. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик фикри мониторингини таъминлашда оммавий коммуникациялар социологиясининг ўрни. Тошкент: Fan va texnologiya. – 2016.

³² Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. –Т.: Yoshlar nashriyot uyi. 2020 й. –136 б.

³³ Ганиева М. Х., Общественное мнение как фактор развития межнациональных отношений в Узбекистане / отв. ред. Р. А.Убайдуллаева ; М-во высш. И сред. специального образования РУз; Нац. ун-т Узбекистана им. М. Улугбека. – Т., 2006 – 96 с

³⁴ Жураев, Н. К. Место и роль политического лидера в условиях социально-политических реформ в Узбекистане : специальность 23.00.02 "Политические институты, процессы и технологии" : автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук / Жураев Нарзулла Касимович. – Ташкент, 1997. – 33 с.

³⁵ Куранбоев Қ. Давлат бошқарув кадрлар тизими: шаклланиш ва ривожланиш муаммолари (сиёсий-ижтимоий жиҳатлари) //Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – 2008.

³⁶ Латипова Н.М. Социальная защита детей и семей в Узбекистане: Дис. ... д -ра социол. наук. - Ташкент, 2020

³⁷ Муминов А. Г. Национальная политика независимого Узбекистана и пути ее реализации в духовно-культурной сфере (теория и практика) //Автореф. дисс... докт. полит. наук. – 1999.

³⁸ Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007.-272 б.

³⁹ Убайдуллаева Р. А., Рахимова Н. Х. Условия и факторы повышения социального статуса женщин Узбекистана //Социологические исследования. – 2015. – №. 5. – С. 110-113.

⁴⁰ Матибоев. Т.Б. Ўзбекистонда ижтимоий ҳамкорлик тизими: шаклланиши, ривожланиши ва истиқболлари. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси - Т.: Академија, 2014. 250-б.

⁴¹ Атаманчук Г. В. Теория государственного управления. -М.: Юрид.лит. – 2010. -399 с.

⁴² Основы теории коммуникации. — М.: Гардарики, 2003. — 615 с.

⁴³ Вечер Л. С. Теория и методология государственного управления. - Мн.: Акад. упр. при Президенте Респ. Беларусь. – 2005. – Т. 231.

⁴⁴ Давыдов Ю. Н. Макс Вебер и современная теоретическая социология: Актуальные проблемы веберовского социологического учения. — М.: Мартис, 1998. — 510 с. — ISBN 5-7248-0056-Х.

⁴⁵ Замошкин Ю. Вызовы цивилизации и опыт США. История, психология, политика. М.: Наука, 1991.

⁴⁶ Макаренко В. П. Политическая концептология: обзор повестки дня. – М.: Праксис, 2005. – 368 с.

⁴⁷ Оболонский А. В. Этика публичной сферы и реалии политической жизни. 2016. 448 с. ISBN 978-5-244-01186-9 ...

⁴⁸ Сморгун В. Политические сети. Теория и методы анализа. — М.: Издательство «Аспект. Пресс», 2014. — 320 с.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda jamiyatni modernizatsiyalash jarayoni, demokratik institutlar va mahalla boshqaruvi ahamiyati jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan bo'lgan Abdurauf Fitrat⁴⁹, Mahmudxo'ja Behbudiy⁵⁰, Abdulla Avloniy⁵¹, Abdulla Qodiriy⁵² va boshqalarning asarlarida etnomadaniy idrok etish negizida tadqiq etilgan.

Yangi O'zbekistonda mahallabay ishlash tizimi respublikamizda alohida mustaqil mavzu sifatida endigina kirib kelmoqda. Yurtimiz olimlardan A.Saidov⁵³, Sh.Ochilov, Ya.Ollamov⁵⁴, M.G'ulomov, A.To'laganov, O.Qurbonov, M.Qirg'izboyeva, R.Rahmonov va boshqalar mahalla yoki o'zini o'zi boshqarish institutlarining faoliyati bo'yicha tadqiqot ishlarida e'tibor berib o'tganlar. Jamiyat va davlat boshqaruvida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlari masalasi mamlakatimiz jamiyatshunos olimlarining ham e'tiborini o'ziga jalb etdi. Bu borada N.Aliqoriyev⁵⁵, O.Ota-Mirzayev⁵⁶, O.Abdurahmonov, E.Azizov, A.Azizxonov, O.Abduzimov⁵⁷, M.Bekmurodov⁵⁸, Sh.Sodiqova, M.G'aniyeva⁵⁹, R.Jumayev, N.Jo'rayev⁶⁰, Sh.Qudratxo'jayev, Q.Quranboyev⁶¹, N.Latipova⁶², A.Muminov⁶³, F.Musayev⁶⁴, A.Raxmonov, R.Ubaydullayeva⁶⁵, A.Umarov, E.Xalilov,

⁴⁹ Fitrat. Tanlangan asarlar, Ikki jildlik. T.: „Ma'naviyat“, 2001.

⁵⁰ Махмудхўжа Бехбудий. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Akademnashr, 2021. — 512 с.

⁵¹ Avloniy, Tanlangan asarlar, Ikki tomlik, „Ma'naviyat“, T., 1998-yil

⁵² Abdulla Qodiriy. To'la asarlar to'plami, 1-jild. She'rlar. Hikoya va ocherklar. Hajviyalar. T.: Fan, 1995.

⁵³ Саидов А. Сравнительное правоведение. Ин-т гос. и права РАН, Акад. правовой ун-т. — М.: НОРМА, 2006.

⁵⁴ Олламов Я. Давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари: ўзаро муносабатларда муружаатларнинг ўрни, жамоатчилик назоратининг роли ва муружаатлар билан ишлашни такомиллаштириш муаммолари. —Т.: IJOD-PRESS, 2021. —672 б.

⁵⁵ Алиқориев Н.С. Олий таълим тизимини ижтимоий ривожлантириш омиллари. — Тошкент, 2019, - 152 б.

⁵⁶ Ата-Мирзаев О. Узбекистан в зеркале общественного мнения. Монография. — Ташкент: IQTISOD-MOLIYA, 2016. — 351 с.

⁵⁷ Абдузимов О. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик фикри мониторингини таъминлашда оммавий коммуникациялар социологиясининг ўрни. Тошкент: Fan va texnologiya. — 2016.

⁵⁸ Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. —Т.: Yoshlar nashriyot uyi. 2020 й. —136 б.

⁵⁹ Ганиева М. Х., Общественное мнение как фактор развития межнациональных отношений в Узбекистане / отв. ред. Р. А.Убайдуллаева ; М-во высш. И сред. специального образования РУз; Нац. ун-т Узбекистана им. М. Улугбека. — Т., 2006 — 96 с

⁶⁰ Жураев, Н. К. Место и роль политического лидера в условиях социально-политических реформ в Узбекистане : специальность 23.00.02 "Политические институты, процессы и технологии" : автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук / Жураев Нарзулла Касимович. — Ташкент, 1997. — 33 с.

⁶¹ Куранбоев Қ. Давлат бошқарув кадрлар тизими: шаклланиш ва ривожланиш муаммолари (сиёсий-ижтимоий жиҳатлари) //Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. — 2008.

⁶² Латипова Н.М. Социальная защита детей и семей в Узбекистане: Дис. ... д -ра социол. наук. - Ташкент, 2020

⁶³ Муминов А. Г. Национальная политика независимого Узбекистана и пути ее реализации в духовно-культурной сфере (теория и практика) //Автореф. дисс... докт. полит. наук. — 1999.

⁶⁴ Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007.-272 б.

⁶⁵ Убайдуллаева Р. А., Рахимова Н. Х. Условия и факторы повышения социального статуса женщин Узбекистана //Социологические исследования. — 2015. — №. 5. — С. 110-113.

A.Xolbekov, T.Matiboyev⁶⁶, X.Husanova kabi olimlarning tadqiqot ishlari alohida e'tiborga molik.

Mazkur tadqiqot ishlarida etno-regional yondashuv asosidagi jamiyat boshqaruv shakli mahalla faoliyati maxsus tadqiq etilmagan. Yuqoridagi tadqiqot ishlarida mahalla instituti va fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarishiga oid fikr va mulohazalar u yoki bu ijtimoiy muammolar bilan birgalikda o'rganilgan bo'lishiga qaramay, dissertatsiya mavzusi kompleks tarzda tizimli, maxsus tadqiqot obyekti sifatida tahlil etilmaganligini ko'rsatmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, «Yangi O'zbekistonda sotsiologiya va ijtimoiy ishni o'qitish hamda sotsial tadqiqotlarni tashkil etishning dolzarb masalalari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarishda mahallabay ishlash tizimini sotsiologik jihatdan tahlil qilish, usullari va vositalarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Yangi O'zbekistonda mahallabay ishlash tizimini nazariy, amaliy, metodologik jihatlarini o'rganish va tahlil qilish;

mahallani o'sish nuqtasini va ijtimoiy taraqqiyotda namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash;

qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan normativ-huquqiy hujjatlar orqali mahallabay ishlash tizimini tahlil qilish;

mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarning mahallabay ishlash tizimi bilan bog'liqlikdagi ijtimoiy rolini o'rganish;

mahallabay, ko'chabay, xonadonbay, shaxsbay ishlashni tahlil qilish;

yoshlar va xotin-qizlarni bandligini ta'minlashda amaliy yordam ko'rsatishning usul va vositalari tizimini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti Yangi O'zbekistonda mahallabay ishlash tizimi negizida muayyan hududlarning "o'sish nuqtalari" tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini Mahallabay ishlash mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari, tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Anketa so'rovi, ekspert so'rovi, eksprement, tizimlilik, tuzilmaviy-funksional yondashuv, tarixiylik, qiyoslash, usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishda mahallabay ishlash tizimining ijtimoiy o'rni va pragmatik ahamiyati tizimli yondashuv nuqtai nazardan ilmiy asoslangan;

⁶⁶ Матибоев. Т.Б. Ўзбекистонда ижтимоий ҳамкорлик тизими: шаклланиши, ривожланиши ва истиқболлари. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси - Т.: Akademiya, 2014. 250-б.

- mahallani ishsizlik va jinoyatchilikdan holi hududga aylantirish maqsadlarini ro'yobga chiqarishda milliy ma'naviy qadriyatlar va inson kapitaliga tayanish o'zgarishlar dinamikasining uzviyligini ta'minlashi dalillangan;
- mahallabay ishlash tizimi jadal o'zgarayotgan jamiyatimizda stratifikatsion transformatsiyalashuv jarayonlarini faollashtirishda o'ziga xos drayver sifatida namoyon bo'lishi pozitiv tendensiya sifatida asoslangan;
- mahallabay faoliyatini miqdoriy tahlil (hujjatlarni o'rganish, anketa so'rovi) hamda sifat tahlili (ekspert-intervyu, fokus-guruh) natijalarini uyg'unlashtirgan holda baholash hududlarda ijtimoiy, ma'naviy muhitni barqarorlashtirish imkoniyatini kengaytirishi asoslangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish institutlarining ijtimoiy mohiyati bo'yicha nazariyalar tahlili amalga oshirilgan bo'lib, unda o'zini - o'zi boshqarish organlari, mahallabay ishlash tizimining tarkibi va mazmuni sotsiologik tahlil asosida ilmiy asoslangan;

mahalla institutining genezisi, evolyutsiyasi tarixiylik, mantiqiylik hamda qiyosiy tahlil usulini qo'llash yo'li bilan ko'rsatib berilgan;

O'zbekistonda mahalla institutini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarining sotsiologik aspektlari tadqiq etilib, mahallabay ishlash tizimida jamoatchilik nazoratining ijtimoiy ahamiyati yoritib berilgan;

mahallabay ishlash tizimi orqali o'sish nuqtalar aniqlanib ijtimoiy farovonlik drayverlari yaratilishining sotsial mexanizmlari mavjudligi ilmiy dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ekspertlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga asoslangan xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasini fanlar aro ingtegratsion o'rganishda foydalanish imkoniyati, falsafiy refleksiyadan foydalangan holda jamiyat hayotiga oid murakkab ijtimoiy iqtisodiy masalalar bilan bog'liq fenomenlar tizimini chuqurroq bilish va nazariy-fundamental tadqiqotlar hamda uslubiy yondashuvlar vositalarini takomillashtirish bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalardan davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, tijorat tuzilmalari, o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlash va mustahkamlashga yo'naltirilgan siyosiy partiyalar va tijorat vakillari o'rtasida ijtimoiy hamkorlik rivojiga bag'ishlangan maqsadli dasturlar ishlab chiqishda foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi va boshqa sotsiologik institutlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda, oliy o‘quv yurtlarida “Sotsiologiya”, “Oila va gender sotsiologiyasi”, “Ijtimoiy siyosat”, «Sotsial siyosat modellari», “Inson resurslari sotsiologiyasi”, «Sotsiologik tadqiqotlarni loyihalash kontsepsiyalari» fanlari kabi o‘quv fanlari uchun darslik, o‘quv qo‘llanmalar va uslubiy tavsiyalar tayyorlashda hamda mahalla faoliyatiga doir me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi O‘zbekistonda mahallabay ishlash tizimining sotsiologik tahlili bo‘yicha tadqiqot natijalaridan:

bandlikni ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish jarayonida mahallabay ishlash tizimining ijtimoiy o‘rni va pragmatik ahamiyati tizimli yondashuv nuqtai nazaridan ilmiy asoslanganiga oid taklif va tavsiyadan “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan 2023-yilda o‘tkazilgan “Ijtimoiy fikr-2023” mavzusidagi sotsiologik tadqiqotining metodik va metodologik qismini shakllantirishda foydalanilgan (“Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazining 2019 yil 5 martdagi 01-16/84-2-son ma‘lumotnomasi). Natihada, to‘plangan ma‘lumotlar bazasini tashkil qilishda va O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligiga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasiga Markaz tomonidan takliflar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

mahallaning “o‘sish nuqta”larini topish orqali aholi turmush darajasini oshirish dinamikasining uzviyligi nazariy-amaliy jihatdan dalillanganiga oid xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasida 2024-yil 11-iyun kuni efirga uzatilgan “Mahallamiz islohotchilari” ko‘rsatuvini navbatdagi sonining senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 12-iyundagi №01-07/145-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mahalladagi mavjud muammolar, fuqorolarning bugungi kundagi ijtimoiy, iqtisodiy masalalarini hal etishga qaratilgan kompleks yondashuvining sotsiologik tahlilini amalga oshirishga xizmat qilgan;

mahallabay ishlash tizimida yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta‘minlashning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma‘naviy tendensiyalari aniqlanganligiga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Yoshlar ishlari agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan mamlakat yoshlariga yo‘llagan bayram tabrigida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash hamda yoshlar qatlamiga oid murakkab ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan bog‘liq fenomenlar tizimini chuqurroq bilish va nazariy-fundamental tadqiqotlar olib borish, uslubiy yondashuvlar vositalarini takomillashtirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi 2024-yil 8-iyundagi №2-13-21-2743-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yoshlarning bandligini ta‘minlash, ijtimoiy faolligini oshirish, siyosiy hayotga moslashtirishga qaratilgan mahallabay ishlash tizimining innovatsion texnologiyalaridan targ‘ibot dasturlarini tayyorlashda unumli foydalanilgan;

mahallabay ishlash tizimi faoliyatining qiyosiy sotsiologik o'rganishga oid konkret sotsiologik tadqiqot dasturi ishlab chiqilganligiga oid takliflardan "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan 2023-yilda o'tkazilgan "Ijtimoiy fikr-2023" mavzusidagi sotsiologik tadqiqotining so'rovnoma anketasini ishlab chiqishda foydalanilgan ("Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2019 yil 5 martdagi 01-16/84-2-son ma'lumotnomasi). Natijada, Markaz tomonidan sotsiologik so'rovlar o'tkazishni tashkillashtirish borasida innovatsion usul va yondashuvlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, 2 tasi xorijiy jurnallarda (Hindiston, AQSh), 6 ta tezis, shundan 4 tasi xorijiy xalqaro konferensiya materiallari to'plamida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, to'qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsion tadqiqotning asosiy matni 180 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekti va predmeti, tadqiqot metodlari keltirilgan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, olingan natijalarning ishonchliligi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Fuqarolarni o'zini - o'zi boshqarish institutlarini tadqiq etishning nazariy metodologik asoslari**" deb nomlangan. Ushbu bobda fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish institutlarini tadqiq qilishning nazariy va metodologik asoslari ko'rib chiqilgan. Mazkur bobda fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish institutlarining ijtimoiy mohiyati bo'yicha nazariyalar tahlili amalga oshirilgan. Ikkinchi qismida fuqarolarni o'zini - o'zi boshqarish organlari, mahallabay ishlash tizimining tarkibi va mazmuni mohiyati yoritib berilgan. Uchinchi qismda esa mahalla inson kapitalini rivojlantirish maskani sifatida tadqiq qilingan.

Dissertant o'zini-o'zi boshqarish tushunning ildizlari qadimiy davrlarga borib taqilishini ta'kidlar ekan qadimgi Rimdayoq bu boshqarish turi mustaqil faoliyat sifatida tan olinganini aytib o'tadi. Qadimgi sharq mamlakatlarida bu boshqaruv hudud, ovul oilalar kesimida amalga oshirilganini va bu haqida zardushtiylik diniy ta'limoti muqaddas kitobi Avestoda ham bitilganini qayd etadi. O'zini-o'zi boshqarish, avvalo, qon-qardosh jamoa – oilada shakllanadi. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish shaxsning o'zini-o'zi boshqarish, oilaning o'z-o'zini boshqarishi va

hokozolar mavjud. O'zini-o'zi boshqarish xalq turmush tarziga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Siyosiy jihatdan o'zini-o'zi boshqarish, esa turli jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlari faoliyatida o'z ifodasini topadi. O'zini-o'zi boshqarish – bu ijtimoiy ishlar yuzasidan yig'ilishda kelishib yoki saylangan vakillar yordamida qarorlar qabul qilishdir. Shuningdek, mamlakatimizda mahalla o'zini-o'zi boshqarish tuzilmasi sifatida oiladan fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun axloqiy ko'priklar vazifasini o'taydi. Bunday tuzilma, o'ziga xos noyob ijtimoiy institut G'arb olamida yo'q. Bu hol mamlakatimizda fuqarolik jamiyatiga o'tish jarayonining jadallashuvi va oson kechishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda mahallani o'zini-o'zi boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin. Rivojlangan demokratik mamlakatlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab davlat boshqaruvining nomarkazlashuvi natijasida o'zini o'zi boshqarish organlari jamiyatning asosiy institutlaridan biriga aylandi. G'arbda mahalliy o'zini o'zi boshqarish “munitsipal” (ingl. municipal o'zini o'zi boshqarish) deganda, u yoki bu ma'muriy- hududiy birliklardagi aholi vakolatlarini ifodalovchi, shuningdek, saylangan organlar va ularning ma'muriyatlari tomonidan amalga oshiriladigan, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarish tushuniladi. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibiga mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlari kiradi. O'zini o'zi boshqarishning asosiy prinsiplarini har bir mamlakatning Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan o'zini o'zi boshqarish organlarining tabiati bilan bog'liq bo'lgan mustaqil faoliyatni amalga oshirishni tashkil qiluvchi rahbariy g'oyalar yig'indisi tashkil etadi.

O'zini o'zi boshqarish ya'ni mahalliy (yoki munitsipal) boshqaruv ma'muriy- hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo'yiladigan organlar hamda ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish dastlab nazariya holatida G'arbiy Yevropada paydo bo'ldi. Agar bunday boshqaruvning mohiyatiga e'tibori beradigan bo'lsak, mahalliy davlat hokimiyati demokratik tamoyillar asosidagi boshqaruv hisoblanadi. Uning ixtiyoriga quydagilar kiradi:

- qonuniyligni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy byudjetni shakillantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, yuyudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish mumkin.

Demak fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydigan, mustaqil faoliyat yuritishi qonunan mustahkamlangan organlar bo'lib, ularning mustaqilligi mahalliy hokimiyat organlari bilan munosabatlarida ham aks etadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mustaqillik davriga kelib fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutlariga aylantirishga

doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi mahalla maqomini fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatimizda shaharcha, posyolka, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldilar. Bu dunyo buyicha faqatgina O‘zbekistonga xos bo‘lgan betakror boshqaruv prinsipining yaratilishi aslida yurtimiz davlatchilik tarixining olis ildizlariga borib taqaladi.

“Mahalla” arabcha so‘zdan kelib chiqib, “shahar ichidagi shahar” ma’nosini anglatadi. Umuman, qadim zamonlardan o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlagan. Mahalla, umuman, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyatidagi roli ularning muayyan hududdagi aholini birlashtirishi, uni yagona jamoaga aylanishi va faoliyat ko‘rsatishiga xizmat qilishidadir. Mahalla xalq bilan bevosita ishlashning eng samarali va an’anaviy mexanizimidir. Xalq bilan muloqatning bunday usulini boshqacha qilib mahallabay ishlash tizimi deb atayapmiz. Umuman, bu borada qanday ishlar qilinmoqda, rejalar, maqsadlar nimalardan iborat. Mahallabay ishlash tizimi deganda, butun davlat va jamiyat tuzilmalarining mahallalar kesimida aholi orasida mavjud ijtimoiy, iqtisodiy muammolariga birgalikda yechim topishi nazarda tutiladi. Bu mavjud mutassaddilar tomonidan ma’lum bir tizimda maqsadli ravishda faoliyatni amalga oshirishni talab etadi.

Dissertant mahallabay ishlash tizimining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib beradi. Mahalladagi mavjud muammolar va aholining kundalik masalalarini hal etish birgina mahalla tizimi xodimlari tomonidan bartaraf etish imkonsizligidan kelib chiqib bu jarayonda har bir soha ma’sullarining ishtiroki va aralashuvi muhimligi ta’kidlanadi. Joylarda olib borilayotgan mahallabay ishlash mexanizimining ham muhim asosini ana shu tamoyil ya’ni barcha soha vakillarining hamjihat bo‘lib, hududlardagi masalalarni yechishga kompleks yondashuvining sotsiologik tahlili bayon etiladi. Ayniqsa mahallani inson kapitalini rivojlantirishdagi o‘rni va rolini aniqlanib “hamma narsa inson uchun” tamoyilining mazmun mohiyati yoritilar ekan bunda inson omili va ijtimoiy kapital masalalarni belgilab berishda mahallaning o‘rni va ahamiyati keng tahlil qilib beriladi.

Mazkur bobda olib borilgan tadqiqot natijasida xulosa qilish mumkinki, mahalliy o‘z o‘zini boshqarish institutga xos bo‘lgan imkoniyatlar shu qadar keng va u fuqarolarning siyosiy ishtiroki uchun har tomonlama yetarlicha shart-sharoitlar yaratib beradi. O‘zini o‘zi boshqarish institutlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir. Oxir oqibatda bu institutlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta’minlab beradi. Shu asosda jamiyatning demokratiyalashuvi kengayib boradi va haqiqiy ma’nodagi fuqarolik jamiyati rivoj topadi. Mahallabay ishlash tizimi asosida esa davlat hamda jamiyat tuzilmalari hamkorligi tashkil qilinadi va ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish samaradorligi kengayadi.

Dissertant ikkinchi bobda **“O‘zbekistonda mahalla institutini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”**ni ko‘rib o‘tgan bo‘lib, unda birinchi masala o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishlash mexanizmlari holati tahliliga bag‘ishlangan. Ikkinchi qismda Mahallabay ishlash tizimida jamoatchilik

nazoratining ijtimoiy ahamiyati va uchinchi qismda oiladagi totuvlikni ta'minlashning ob'ektiv va sub'ektiv omillari tahlil qilingan.

Tadqiqotning mazkur qismida mahalla institutini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, o'z o'zini boshqarish organlarining ishlash mexanizmlari va mahallabay ishlash tizimida jamoatchilik nazoratining ijtimoiy ahamiyati va mahalla institutining eng muhim bo'g'ini bo'lgan oila barqarorligining muhim omillari xususida fikr yuritiladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator yo'nalishlar ishlab chiqildi.

Xususan, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mustaqil faoliyat yuritish mexanizmi joriy qilindi va mahallalardagi ijtimoiy ma'naviy masalalarga jamoatchilik bilan birgalikda, hamkorlik asosida yondashilinish o'zaro yuksak ma'naviy muhit shakllantirilishi hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash nazarda tutilgan. Bundan tashqari jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish ustuvor yo'nalish belgilandi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash amalga oshirildi.

Dissertantning tahlilicha bunda eng muhim jihati mahallalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashini fuqarolar yig'inlarining uyushmasiga aylantirish, unga yuridik shaxs maqomini berish va doimiy asosda ishlaydigan ijro tuzilmasini tashkil etish nazarda tutilganligidir. Tadqiqotning keyingi qismida mahalla bu o'z o'zini boshqarish institutining bosh bo'g'ini sifatida faoliyat jabhalarini jamoatchilik nazorati asosida yanada takomillashtirib borishi ko'rib chiqiladi. Bu ayniqsa, mahallabay ishlash tizimida ya'ni aholi turmush tarzini ijtimoiy-iqtisodiy saviyasini oshirish mumkin bo'lishi ta'kidlanadi. Chunki, mahallalar jamiyatning moddiy-ma'naviy asoslarini yaratish tayanchiga aylanib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy masalalarni hal etib, fuqarolar yig'inida demokratiya tamoyillarini shakllantirish, inson omilini qadrlash makoni sifatida asosiy o'z o'zini boshqarish organiga aylanib boraveradi. Shu o'rinda jamoatchilik nazoratining evolyusiyasi, o'ziga xos xususiyatlari va tarkibiy qismlari yoritib berilgan bo'lib, mahallabay ishlash tizimida jamoatchilik nazoratining nafaqat ijtimoiy balki amaliy ahamiyati ham ko'rsatib o'tiladi.

Tadqiqotning mazkur bobi oilada totuvlikni ta'minlashning sotsiologik tahliliga bag'ishlanar ekan, bundan ko'zlangan maqsad oilalar mahallalarni eng muhim elementi ekanligidan hamda oila mustahkamligi va totuvligining omillari aynan mahallaning ijtimoiy amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib berishdan iborat. Shu bilan birga mahallabay ishlash mexanizmining

yo'nalishlari aynan mavjud muammoga qaratilishida ham oilaning totuvligini ta'minlash omillari aniqlashtirib olish bilan bog'liq, deb hisoblanadi. Mamlakat taraqqiyotini oilalar jipsligida deb baholagan dissertant, oilalarda ahillikni ta'minlashning bir qator asoslari tasniflashga harakat qiladi. Ular ma'naviy asos, iqtisodiy asos, huquqiy asos va ijtimoiy asoslar bo'lib ularning har biri mahallabay ishlash mexanizmidagi yetakchi yo'nalishlar ekanligi tahlil qilinadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Mahallabay ishlash tizimini tadqiq etishni sotsiologik tahlili va sintezi”** deb nomlanib, mazkur bobda mahallabay ishlash tizimida hokim yordamchisi faoliyati, xotin-qizlar faoli va Yoshlar yetakchisini faoliyatining tahliliga bag'ishlangan. Shuningdek, dissertant tomonidan 2023 yil mart-aprel oylarida ikki bosqichli ekspert so'rovi va amaliy sotsiologik tadqiqot o'tkazildi. Bunda mahallabay ishlash tizimi bo'yicha ushbu ekspert so'rovi tadqiqotimizga mamlakatimiz hududlarining Andijon, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shaharlari tanlov asosida belgilab olindi.

Ilmiy tadqiqot mobaynida mahalla fuqorolari vakillari, mahallabay ishlash tizimi bo'yicha hokim yordamchilari va umuman mahallabay ishlash tizimini o'rganish asosida mamlakatimizning fuqorolaridan, mahalla vakillaridan, hokim yordamchilaridan sosiologik tadqiqot asosida bugungi kundagi mahallabay ishlash tizimining holatini tahlil qilindi. Rejalashtirilgan ekspert so'rovida 18 nafari mamlakatimizning 6 ta hududdagi mahallabay ishlash tizimida hokim yordamchilari lavozimidagi xalq vakillaridan qatnashgan ekspertlar bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlaridan 347 nafar oila a'zolari, mahalladan jami 132 nafar mahalla o'zini o'zi boshqarish tizimida faoliyat olib borayotgan mahalla vakillari ham qatnashgan bo'lib oila vakillari bilan o'tkazilgan so'rovnoma davomida, respondentlarga «Bugungi kunda turmushingizdan qanchalik mamnunsiz, o'z hayotingizdan qanchalik dapajada qoniqyapsiz?» degan savol bo'yicha fikr tahlil qilindi. Unga ko'ra respondentlarning 121 nafari (40%) o'z hayotidan to'liq mamnun ekanligi, 105 nafar (30%) o'rtadarajada mamnun ekanligini aytib o'tgan. 27 nafari (8%) esa ma'lum sabablar asosida o'z hayotidan qoniqmaydi. Aholiga «Mahallaga asosan qanday muammo bilan murojat qilasiz, shu kungacha mahalladan ko'proq qanday yordam olgansiz?», deb berilgan savolga, moddiy va ijtimoiy ko'makdan ham ko'ra 221 nafar (58%) respondentlar maslahat olish uchun mahallaga murojat qilganliklarini aytib o'tdi.

Tadqiqotchi tomonidan mahallabay ishlash tizimini tahlil qilishda, ekspertlar uchun asosiy savollardan hisoblangan «Bugungi kunda mahalla vakillarining ijtimoiy maqomini oshirishda qanday chora tadbirlar amalga oshirimoqda, Sizing fikringizcha mahalla vakilining ijtimoiy statusi qanday bo'lishi kerak?» degan savol bo'yicha tahlillar atroflicha bayon qilindi.

Mahallabay ishlash tizimi vakillari uchun aholining muammolari va aholining kayfiyati qanchalik muhim ekanligini bilish maqsadida, «Aholi orasida norozichilik kayfiyatini shakllanmasligida qanday ishlar olib borilyapti va bugungi kunda bu holat sizning hududingizda qanday ko'rsatkichga ega?» degan savol bo'yicha ekspertlar fikrini tahlil qilindi. Barcha ekspertlar tomonidan aholining umumiy qilib olganda, o'rta hisobda 23% ida o'z hayotidan mamnun bo'lib yashashlarida hali

